

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MEHNAT TARBIYASINING AHAMIYATI

*Achilova Soxibaxon Xamidovna*

*Qo`qon DPI o`qituvchiisi*

*Mirzamatova Mushtariybonu Bahromjon qizi*

*Qo`qon DPI talabasi*

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mehnat faoliyatlarini tashkil etish uchun ularga avvalo mehnat tarbiyasi berish kerak.

Mehnat tarbiyasi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishining muhim tamoyili. Mehnat tarbiya jarayonida shaxs rivojining bosh omili, dunyoni ijodiy o`zlashtirish, turli sohalardagi mehnat tajribalarini egallash usuli, umumiy ta'liming ajralmas qismi sifatida yuzaga chiqadi. Mehnat tarbiyasining asosiy vazifasi – maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnat jarayonlari, vositalari, predmetlari haqidagi bilimlar, ishlab chiqarish mehnatini amalga oshirish uchun zarur bo`lgan umummehnat va maxsus ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish. Bundan tashqari mehnat tarbiyasi quyidagi vazifalarni hal qiladi: mehnatga samimiy munosabatni; mehnatga qiziqishni, chin dildan bajarilgan vazifadan zavqlanish hissini va mehnatga oid bilimlarni amaliyotda qo'llashni; mehnatdagi intizomlilikni tarbiyalash.

Mehnat tarbiyasi – bolalarni umumiy mehnat bilimlari va ijtimoiy foydali mehnat malakalari bilan qurollantirish. Mehnatsevarlik, mehnatning har xil shakllarini tavsiya etish qobiliyatini namoyon etib, tadbirkorlik va ijodiy yondoshuvni namoyon etish xususiyatlarining egasi sifatida shakllantirish.

Inson hayotida mehnat tarbiyasining roli. Mehnat inson hayoti, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo`lib kelgan va shunday bo`lib qoladi. Mehnat — farovon va baxtli hayot kechirishning eng asosiy sharti bo`lganligi sababli hamma fuqarolar uchun majburiydir. Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflangan vaqt, aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashash mumkin emas. Barcha tirik mavjudot nimanidir iste'mol qilish hisobiga yashaydi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqadan tortib parrandalargacha, suv oslida yashovchi jonivorlardan tortib, ulkan hayvonlargacha ovqatsiz yashay olmaydi. Huddi shuningdek, odamlar ham uzlusiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o`laroq, odamlar kiyinshadi, uy-joy qurishadi, savdo-sotiq qilishadi, kitob o`qishadi, ijod qilishadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun boylik, ya`ni tirikchilik manbayi bo`lgan pul kerak. Pul topish uchun, o`zlariga kerakli narsalarni yaratish uchun odamlar mehnat qilishlari lozim. Mehnat jarayonidagi oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi. Mehnat inson hayotini sermazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog`liqlarini mustahkamlaydilar obro' orttiradilar va o`z kelajaklarini yaratadilar.

Odam dunyodagi hamma yaxshi narsalarga ega bo`lsa-yu, lekin o`zi mehnat qilmasa, u baxtli bo`la olmasligi badiiy asarlarda kuylangan; ezgu maqsadlarga erishishning eng muhim omili bo`lgan mehnat tufayli mamlakatning gullab-yashnashi mumkinligi qayd etilgan. Xullas, mehnat tarbiyasi masalasi ma'rifatparvarlar ijodida hamisha asosiy o`rin tutgan. Ular yoshlarni jamiyat manfaati uchun ishlashga chaqirish bilan birga, ustozlar va ota-onalarning mehnat tarbiyasidagi vazifalari nimalardan iborat ekanhgini ham ko`satganlar.

O`zbek ma'rifatparvarlarining taniqli namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy yoshlarning biror kasb bilan mashg`ul bo`lishini birinchi galdeg'i muhim ish deb hisoblagan. U “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida dangasalik va yalqovlikni qoralab, harakatchanlikni olqishlab shunday yozgan: “Sihatimiz, saodatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, butun hayotimiz harakatimizga bog'liqdir. Harakatsiz

kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo'lib, xorlikda qolurlar. Shuning uchun bolalarni hunar o'rganishga chaqirib, kishilarni biror kasb bilan shug'ullanishiga undab, „yoshlar ... bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas, deb dangasalik qilib ishsiz yursa, zo'r ayb” hisoblanishini uqtirgan.

Mehnat, asosan, ikki turli bo'ladi: aqliy mehnat va jismoniy mehnat. Insoniyat qo'llari yordamida jismoniy kuch sarflab amalga oshiriladigan ishlar jismoniy mehnatni tashkil qiladi. Jismoniy mehnatni aqliy mehnatdan ajralgan holda tushunish mumkin emas. Jismoniy mehnat aql yordamidagina mazmunli, yaxshi sifatli va mahsuldar bo'ladi; aqli odam ketmon chopsa ham, traktor haydasa yoki zavod-fabrikada biror jismoniy vazifani amalga oshirsa, uning ishi yaxshi natija beradj. Aql aralashmagan ishning mahsuli bo'lmaydi. Aqliy mehnat egalari — tarbiyachilar, shifokorlar, olimlar, shoir-yozuvchilar, noshirlar va boshqalar bo'lib, ular ma'naviyat egalaridir. Agar jismoniy mehnat egalari jamiyatni iqtisodiy tomondan ta'min etishsa, aqliy mehnat egalari insoniyatning ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladilar.

Maktabgacha yoshdagি bola aqliy mehnat egasi bo'lib, hamisha o'qiydi, yozadi va o'z ma'naviy olamini boyitish yo'lida mehnat qiladi. Oilada, jamoat orasida jismoniy mehnat bilan shug'illanishga to'g'ri keladi, MTTda esa o'z sog'lig'ini mustahkamlash uchun badantarbiya mashg'ulotlariga qatnashadi. Maktabgacha yoshdagи bolaning o'z odobini namoyish qiladigan yana bir imkoniyati borki, bu uning jamoa mehnatida faol ishtirot etishidir. Jamoatchilik asosida bajariladigan ishlar ko'cha-ko'yda ham, MTTda yoki sinfda ham tez-tez uchrab turadi. Sinfning tozaligi uchun kurashda qatnashish, MTT tajriba uchastkasida olib boriladigan mehnat jarayonida ishtirot etish har bir maktabgacha yoshdagи bolaning sharafli burchidir.

Yoshlikdanoq biror hunar yo kasb “etagi”ni mahkam tutgan yigit-qizlar hayotdan o'z o'rinnlarini topadilar, qoqilmaydilar. Ota-babolardan qolgan hikmatda “Bir yigitga qirq hunar oz” deyiladi. O'sha hunarlardan ayrimlarini sanab o'tamiz: duradgor, naqqosh, kulol, zargar, etikdo'z, novvoy. Inson o'zining bolalik davridan boshlab mehnat qilishga o'rganib, o'ziga yoqqan kasbni egallab borishi va kelajakda mehnatsevar inson bo'lib yetishmoq uchun harakat qilishi kerak. El-yurt orasida o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, qo'lida guldek hunari bo'lgan kishilarni odamlar e'zozlab, hurmat qiladilar.

Ishning og'ir-yengili bo'ladi-yu, ammo yaxshi-yomoni bo'lmaydi. Ba'zilar qora mehnat deb jirkangan ishga siz sidqidildan qo'l ursangiz, u ish sizni o'ziga shu qadar tortadiki, hayotingizni o'sha ishsiz tasavvur etolmay qolasiz. Mehr va ishtiyoq bilan bajarilgan bar qanday “qora” ish ham toza, ko'ngilli, jozibador bo'lib tuyiladi. Ko'rganlar: “Qo'li gul ekan, otasiga rahmat!” deb ketadi.

Yaxshi inson haqida xayol qilganingizda, mehnat hayotining eng zarur ehtiyojiga aylangan kishi ko'z oldimizga keladi. Har kuni, har daqiqa mehnat burchini kamtarlik bilan, kerilmasdan, maqtanmasdan, vaqtini bekor o'tkazmasdan bajarib kelgan odam chinakam yaxshi insondir. Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzat-u hurmat ko'rgan har bir ota-onasi o'z farzandlarining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishni xohlaydi. Har qanday yumush, jumladan, idish-tovoq yuvish, uy-hovlilarni supurish, mol-hollarga qarash, tomorqa, qurilish, ta'mirlash ishlarida qatnashish ham mehnatdir.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagи bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan davlat talablari Ro`yxatdan o'tish. 03.07.2018 yildagi 3032-son.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan) 2022-yil nashr etilgan dasturi.
3. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to`g`risidagi qonun – T.: 2019. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi Farmoni, 2019. 9 oktyabr. №209(7439)-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagи “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2019-y., 07/19/4312/3106-son; 09.10.2020-y., 07/20/4857/1357-son.
5. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=oqrGWXoAAAAJ&citation\\_for\\_view=oqrGWXoAAAAJ:\\_FxGoFyzp5QC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=oqrGWXoAAAAJ&citation_for_view=oqrGWXoAAAAJ:_FxGoFyzp5QC)
6. G Nazirova. Мактабгача катта ёшдаги болаларда халқ оғзаки ижоди воситасида миллый түрүп ҳиссини шакллантириш-ижтимоий педагогик зарурият сифатида. Science and innovation 1 (B8), 2067-2077
7. GM Nazirova. CONTENT AND PEDAGOGICAL CONDITIONS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PEDAGOGUES-EDUCATORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS/ International Academic Research Journal Impact Factor 7 (1), 6
8. NG Malikovna, MM Nurmatovna, Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education, ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact.
9. NA Sultonova, I Sh, D Xolqoziyeva - TECHNOLOGIES OF URBRINGING CHILDREN IN MODERN FAMILIES, European Journal of Research and Reflection in Ed, 2020
10. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:\\_FxGoFyzp5QC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:_FxGoFyzp5QC)
11. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:Se3iqnhoufwC)
12. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation\\_for\\_view=Rh71JaMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Rh71JaMAAAAJ&citation_for_view=Rh71JaMAAAAJ:IjCSPb-OGe4C)
13. EM Akilovna, THE COMPETENCE OF THE EDUCATOR IN THE APPLICATION OF TECHNOLOGIES FOR THE ORGANIZATION OF HEALTH CARE WORK FOR CHILDREN OF PRESCHOOL AGE, INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ...
14. [https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=x8zmCUkAAAAJ&citation\\_for\\_view=x8zmCUkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=x8zmCUkAAAAJ&citation_for_view=x8zmCUkAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC)